



Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi agressiv bolalar bilan ishlash va ularni sog'lomlashtirish

Muallif: Abdumo'minova Dilafruz Alibek qizi

Oqdaryo tuman hokimligi, Oila va xotin-qizlar bo'limi Yangiqo'rg'on-

Yangiqishloq MFY xotin-qizlar faoli

Oqdaryo tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi 3-sonli

Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi

Annotatsiya:

Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida uchraydigan agressiv bolalar bilan ishlashning psixologik va pedagogik jihatlari yoritilgan. Agressivlikning sabablari, ularning oilaviy va ijtimoiy omillari, shuningdek, bunday bolalarni sog'lomlashtirish yo'llari — terapiya, trening, o'yin va kommunikativ metodlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar:agressiv bola, psixologiya, maktabgacha ta'lim, tarbiya, muhit, empatiya, muloqot, oilaviy muhit, art-terapiya, reabilitatsiya.

Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi insonning shakllanish bosqichida eng muhim davr hisoblanadi. Shu jarayonda bolalarning xatti-harakatlari, his-tuyg'ulari, ijtimoiy muloqotga kirishish darajasi va emotsional muvozanati kelgusidagi shaxsiy rivojlanish uchun asos bo'ladi. So'nggi yillarda psixologik kuzatuvlar va amaliy tadqiqotlar natijasida maktabgacha yoshdagi bolalarda agressiv xulq-atvor holatlarining ortib borayotgani qayd etilmoqda. Bu holatning sabablari turlicha bo'lishi mumkin — oiladagi tarbiya uslublarining nomutanosibligi, e'tiborsizlik, zo'ravonlik, ijtimoiy muhitdagi stress omillari yoki bolaga nisbatan haddan tashqari qattiqqo'llik va nazoratning kuchliligi. Agressiv bola bu ichki iztirobini tashqi muhitga tajovuzkorlik orqali ifodalovchi shaxsdir. Bunday bola ko'pincha o'z his-tuyg'ularini nazorat qilishda qiynaladi, atrofdagilarning harakatlarini dushmanlik sifatida qabul qiladi va himoya reaksiyasi sifatida jahl, urish yoki yig'lash orqali javob beradi. Shu bois, bunday bolalar bilan ishlashda pedagoglar va psixologlarning yondashuvi juda ehtiyotkor, sabrli va tizimli bo'lishi zarur. Agressivlikning ildiz sabablari, avvalo, oilada shakllanadi. Agar bola ota-onalar o'rtasidagi janjallar, baqiriq, jazolash yoki zo'ravonlik muhitida ulg'aysa, u o'sha modelni o'zlashtiradi. Bola ko'rganini o'rganadi, eshitganini takrorlaydi. Shu sababli, tarbiya jarayonida kattalar bolaga o'z hissiyotlarini to'g'ri ifodalash, muammolarni muloqot orqali hal qilish ko'nikmalarini o'rgatishlari lozim. Psixologlar ta'kidlashicha, agressiv bolalar bilan ishlashning eng muhim tamoyili — ularga mehr ko'rsatish va ijobiy aloqa o'rnatishdir. Ba'zan kattalar bunday bolalarni





jazolash, ularni sinfdoshlaridan ajratish yoki doimiy tanbeh berish orqali “tuzatish”ga urinadilar, ammo bu usullar natijani yomonlashtiradi. Aksincha, agressiv bolaga e’tibor, sabr, rag’bat va ijobiy muloqot kerak. U o’zini qadrlanishini, sevishtarini va tushunishlarini his qilsa, bosqichma-bosqich o’zini tuta olishni o’rganadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida agressiv bolalar bilan ishlashda psixologik treninglar, rolli o’yinlar, musiqiy terapiya, rangli tasvir terapiyasi (art-terapiya) kabi metodlardan foydalanish juda samarali natijalar beradi. Masalan, rasm chizish yoki plastilindan shakl yasash orqali bola ichki his-tuyg’ularini ifodalaydi va yengillik his qiladi. Shuningdek, jismoniy faoliyat — raqs, yugurish, harakatli o’yinlar orqali bolaning energiyasi ijobiy yo’nalishda sarflanadi. Bolaning agressivligini kamaytirishda kommunikativ o’yinlar ham muhim ahamiyatga ega. “Do’slik aylanasi”, “Keling, kelishamiz”, “Men seni tushunaman” kabi mashg’ulotlar orqali bolalar o’zaro hurmat, kechirimlilik va empatiya tuyg’usini o’rganadilar. Psixologning vazifasi — bolaning ichki holatini aniqlash, sabablarni tahlil qilish va individual yondashuvni ishlab chiqishdan iborat. Agressiv xulqning har bir ko’rinishi o’z sababi bilan bog’liq bo’lishi mumkin. Ba’zi bolalarda bu holat oilaviy muammolar, boshqalarda esa sog’liq bilan bog’liq omillar, masalan, asabiylik yoki nevroz sababli yuzaga keladi. Shu bois, bunday bolalar bilan ishlashda pedagog, psixolog, ota-ona va shifokorlarning hamkorligi zarur. Ota-onalarga ham psixologik maslahatlar berish lozim: bola bilan tinch ohangda gaplashish, uni jazolamaslik, balki tushuntirish yo’li bilan xatoni anglatish, mehr bilan yo’l ko’rsatish tavsiya etiladi. Agressiv bola — bu e’tibor so’rayotgan bola. Uning har bir nojo’ya xatti-harakati aslida ichki og’riqning, his-tuyg’ularning ifodasidir. Shu sababli, bolaga nisbatan rahmdillik, sabr va ishonch muhim. Kattalar uni qabul qilsa, tushunsa, u asta-sekin o’zini boshqara olishni o’rganadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida agressiv bolalar uchun maxsus individual reabilitatsiya dasturlarini joriy etish, ularni ijtimoiylashtirish, jamoaviy faoliyatga jalb etish, rahbarlik mas’uliyatini berish orqali ularning o’ziga ishonchini oshirish mumkin. Bunday yondashuv natijasida bola o’zini jamiyatda muhim deb his qiladi va agressiv xatti-harakatlar asta-sekin kamayadi. Maktabgacha yoshda to’g’ri yo’naltirilgan psixologik ish bola hayoti uchun poydevor bo’ladi. Chunki bu davrda berilgan ijobiy tarbiya, e’tibor va sevgi bolaning butun hayot yo’lini o’zgartirishi mumkin. Shunday ekan, agressiv bolalarni “muammo” deb emas, balki “ehtiyot” deb qabul qilish kerak. Ularni sog’lomlashtirish — bu faqat xulqni o’zgartirish emas, balki ularning ruhini davolash, yuragini tinchlantirishdir. Shu yo’l bilangina biz sog’lom, mehrli, ishonchli va ijobiy fikrlovchi avlodni tarbiyalaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova V. “Bola psixologiyasi” – Toshkent: O’qituvchi, 2020.





2. To‘xtayeva D. “Oila psixologiyasi asoslari” – Toshkent, 2019.
3. Ismoilova G. “Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasi” – Samarqand, 2021.
4. www.pedagog.uz
5. www.ziyonet.uz

